

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH**

**O.Turdiyeva, U.Bovanova\*\* - Qo'qon DPI**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, bare ha sohada muhim islohotlar, yangicha qarashlar va tadqiqotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar tarbiyasiga kata e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi va izchil faoliyati tufayli Respublikamizda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida ekologiya fani o'qitila boshlandi. Jumladan, uzluksiz ta'lim jarayotida ekologik ta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida atrofdagi tabiat va bizni o'rab turgan olam bilan tanishuvdan boshlanadi. Ushbu mavzuni chuqurlashtirish boshlang'ich sinflar negizida "Sog'lomlashtirish", "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" kabi fanlar orqali o'rganiladi. Ammo boshlang'ich sinflarda o'quvchilar eng dastlabki bilimlarni "Savod o'rgatish" so'ngra "O'qish" darslarida oladilar. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda va har tomonlama tarbiyalashda o'qish darslari katta o'rin egallaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish fanining ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari o'qish jarayonida birgalikda erishiladi. O'qish darslari o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. O'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga boshlang'ich ekologik tarbiya ekologik madaniyatni singdirishning boshlang'ich davri hisoblanadi. Hozirgi davr global ekologik muammosi bo'lmish bu bilim va malakalarni o'quvchilarga shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Shunday ekan, nalaqat o'qish darslarida, balki ona tili, matematika, tabiatshunoslik, odobnoma darslarida o'quvchilar bilan go'zal tabiat haqida suhbatlar tashkil etish, uni asrash, uni kelgusi avlodga yetkazish yuzasidan olib boriladigan ulkan nashrlar xususida fikr yuritish maqsadga'tnuvofiqdir.

O'quvchilarga yashil tabiat quchog'idagi borliqni o'qish darslarida sistemali ravishda o'rgatib borish jarayonida ekologik bilim va tarbiyaning o'ziga xos

tomonlari singdiriladi. Insonning mehnat faoliyati bilan tabiat o'rtasidagi aloqalar tushuntirilib, tasavur hosil qilinadi.

Boshlang'ich ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'quvchilarning bilish qobiliyatlari o'stirilib, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlantiriladi. SHu kabi o'qish ko'nikma va malakani singdirish uchun o'qituvchi o'qitishning turli metod hamda metodik usullaridan foydalanadi. O'qituvchi turli metodik usullaridan foydalanishdan oldin, darsni oldiga qo'ygan maqsaddan boshlashi kerak. Masalan, yangi mavzuni yofitishda 3-sinf o'qish darsidagi "Soy suvi haqida ertak"<sup>1</sup> matni asosida ekologik madaniyatni shakllantirishdagi 1 soatlik dars ishlanmasini olaylik.

#### Darsning texnologik xaritasi

Tayanch tushunchalar		Fidoyilk, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ekologik, tabiat ne'matlari, uzoqni o'ylash, ehtiyoj, tabiatning shaxsiy qoidasi
Darsning maqsadi	Ta'limiy	O'quvchilarga suv hayot manbasi ekanligini, suv, yer, o'simliklar, daraxtlarning bir-biriga bog'liqlik tushunchasini hosil qildirish
	Tarbiyaviy	O'quvchilarga tug'ilib o'sgan zaminning tuproq va har bir zarrasini avaylab asrashga, qadriga etishga o'rgatish
	Rivojlantiruvchi	O'qish matakasini shakllantirish, o'quvchi nutqini o'stirish, xulosa chiqarishga o'rgatish

<sup>1</sup>Soy suvi haqida ertak. Umarova M., Xamraqulova X., Tojiboeva R.O'qish. 3-sinf. T.: O'zbekiston, 2013. 167-b.